

ISSN 2181-7138

МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2023

6-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен длизимге алынды*

*Карақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылды 14-февральдан длизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

Xayrullayeva D. Etnopedagogika-boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarni tarbiyalashning muhim manbai sifatida	532
Usmonova Z. TIMSS – xalqaro baholash dasturi orqali o'quvchilarning kreativligini oshirish yo'llari	538
Baxritdinova G. Maktabgacha yoshdagi bolalardagi bolalarda uchraydigan sigmatizmni bartaraf etishda o'yinlardan foydalanish texnologiyasi	542
Muzaffarova X., Lapasova R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim - tarbiyasida raqamli texnologiyalardan foydalanish	548
Ikramova D. Duduqlanuvchi bolalarda mustaqil nutqni rivojlantirish usullari	553
Berdiyorov X. Aqli zaif bolalarda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik materiallar va logopedik o'yinlardan foydalanishning korreksion ahamiyati	558
Bozorboyev J. Maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni nutqini tarbiyalashni o'ziga xos xususiyatlari	562
Касимов Ф., Касимов Ф. Бошлагич синфларда таққослашига донир топшириклар устида ишилаш	567
Qilichova M. Sharof rashidov asarlari orqali yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning innovatsion pedagogik texnologiyalari	576
Mirazimova M. Oilada bolalarni tarbiyalashda axloqiy qadriyatlarning o'mi	582
Kadirova Sh. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida milliy g'urumi shakllantirish vositalari	586
Ismoilova S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda lug'at boyligini oshirish xususida	593
Sultanov T. Boshlang'ich ta'linda o'yin texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari	599
Хамицов Ж.А. Бошлангич синф ўқувчиларининг ижодкорлик қобилиятларини шакллантаришининг педагогик-психологик хусусиятлари	603
O'tamurodova Sh. M. Sahnalashtirish faoliyatida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-madaniy malakasini shakllantirishga oid tajribalar	608
Хамидова С.Н. Кичик мактаб ёшдаги болаларни ўз ўзини anglash қобилиятини ривожлантиришга дифференциал ёндашув	613
Mamatova A.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy madaniyati tarkibi	619
Номозова Л. Особенности и тенденции развития стрессоустойчивости в подростковом возрасте	624

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ

Axmedov J. Yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashda sport turlarining ahamiyati	630
Xudoyberganov J.S. Kurash turlari va ularning rivojlanishi hamda taraqqiyoti	636



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Sultanov T.M.

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: boshlang'ich ta'lif o'qituvchilar, pedagogika, sifatli ta'lif, bolalar bilan ishlash, boshlang'ich sinf, sinf muhiti, pedagogik maslahatlar.

Ключевые слова: учителя начальных классов, педагогика, качественное образование, работа с детьми, начальная школа, школьная среда, педагогический совет.

Key words: primary school teachers, pedagogy, quality education, work with children, primary school, school environment, pedagogical council.

Kirish. Boshlang'ich sinflarda ilk mакtabga borish bolalarning hayotida juda katta voqeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi, maktab davrida bolalarning asosiy faoliyatları o'zgaradi. Maktab yoshidan boshlab bolalarning asosiy faoliyatları, asosiy vazifalari o'qish, fan asoslarini puxta o'zlashtirish bo'lib qoladi. Bolalarning o'qish faoliyati ulardan yangi sifat, yangi xususiyatlarga ega bo'lishlarini talab qiladi. O'qish faoliyati uchun bolalarda barqaror diqqat, o'tkir zexn, mustahkam iroda, bir qadar taqakkur, yaxshi nutq, iroda va shuning bilan birga mustaqillik, ishchanlik, batartiblik xislari bo'lishi talab etiladi.

O'quvchilarni o'quv materiallarini o'zlashtirishga qiziqtirish va ongli tarzda yaratuvchilikka undashda o'yinlar alohida ahamiyatgaega. O'yinlar va o'yinlarga asoslangan o'quv mashg'ulotlari kutilgan samaradorlikka erishish imkoniyatini berishi uchun ularni amalga oshirish jarayonida qanday vazifalarni yechishmumkinligi pedagogik jihatdanto'g'ri belgilanishi lozim. Bunday o'yinlarni tashkil etishni imkon qadar boshlang'ich sinflardan boshlash lozim. Pedagoglar hamda psixologlarning tahkidlashicha, o'quvchining o'zi qiziqmasa, egallagan bilimlari uning hissiyotlariga ijobiy tafsir ko'rsatmaydi va intellektual jihatdan rivojlantirishga xizmat qilmaydi. SHuningdek,



o'quvchilar mazkur bilimlarni o'zlashtirish jarayonida sinfdoshlari bilan manfaatli hamkorlik o'rnata olmaydi.

O'zbek tilining izohli lug'atida «O'yin ko'ngil ochar, dam olish maqsadidaqilinadigan erkin harakat yoki mashg'ulot. Boshqalar bilan musobaqa qilish uchun mahlum qoidalar asosida o'tkaziladigan mashg'ulot», deb tahriflagan.

Ensiklopedik lug'atda esa «bolalar tarbiyasi, ta'limi hamda rivojlanishidaularni kelgusi hayotga psixologik jihatdan tayyorlash vositasi sifatidamuhim ahamiyatga ega», deb yozilgan.

Bular o'yin haqidagi umumiy tahriflar bo'lib, didaktik o'yinlarning mohiyati haqida didaktik atamalar lug'atida quyidagicha tahrif bergan. “Didaktik o'yin–o'r ganilayotgan obekt hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishi va faoliik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyatini turidir”.

Pedagogik atamalar lug'atida esa, “didaktik o'yinlar-ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus ta'limiy o'yinlardir”. Demak, o'yin – o'quvchilarini bilish, ijod qilish, mahnaviy-intellektual jihatdan rivojlantirish vositasidir. O'yin yordamida o'quvchilar oldiga yangi olam ochiladi. O'yindan foydalanmay, o'quvchilarni to'laqonli rivojlantirish imkonsizdir. O'yin jarayonida o'quvchilar o'zaro munosabatlar tizimini o'zlashtirib, hamkorlikka kirishadi, rivojlanadi, shaxs sifatida shakllanadi. O'yin murakkab ijtimoiy-madaniy hamda didaktik hodisa sifatida alohida qimmatga ega bo'lib, ko'plab falsafiy-madaniy, pedagogik-psixologik tadqiqotlar obhekti bo'lgan. O'quvchilar orasida muloqot o'rnatishtida o'yinlar alohida o'rin egallaydi. Uning murakkabligi pedagogik jarayonda o'yin faoliyatining o'ziga xosligibilan belgilanadi. O'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari sifatida ularning alohida pedagogik qimmatga egaligi, erkinligi va ixtiyoriyligi ehtirop etiladi. O'yinlar amaliy yo'naltirilgan bo'lib, kafolatlangan natija olishga xizmat qilishi bilan alohida pedagogik qimmatga ega.

O'yinlar ko'p vazifali bo'lishi bilanbir qatorda turli-tuman mazmun va ko'rinishiga egaligi bilan ham ajralib turadi. O'yinlarni tasniflashga nisbatan



1.3-rasm. O'yin tushunchasining lug'atlarda tahriflanishi

turli yondashuvar mayjud. Ularning asosiy qismi o'yinlarning mayjud qismlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan. Ko'plab mutaxassislar o'yinlarni uchta katta guruhlarga bo'lib tavsiflashgauriringan: tayyor va qathiy qoidalarga asoslangan o'yinlar; qoidalari aynan o'yin jarayonining o'zida shakllantiriladigan erkin o'yinlar, qisman qathiy va qisman o'yin jarayonida shakllanadigan qoidalarga asoslanadigan o'yinlar. Biroq yuqoridagi ko'rsatkichlar shartli xarakterga ega bo'lib, har bir o'yin jarayoniga ijodiy yondashish imkoniyati mavjud. Bu jarayonda ishtirokchilar muayyan qoidalarga amal qilishi talab etiladi.

O'yinning mustaqil shakllari sifatida quyidagi guruhlarni ajratib ko'rsatish mumkin: barcha turdag'i bolalar o'yinlari; bayram o'yinlari; xalq o'yinlari; teatrlashtirilgan o'yin harakatlari; o'yin treninglari va mashqlari; o'yin shaklidagi so'rovnomalar va testlar; badihago'ylikka asoslangan o'yinlar; musobaqalar, bahs-munozaralar, qarama-qarshi kurashlar, raqobatlashishga asoslangan o'yinlar, tanlovlardan, estafetalar; to'y anhanalari, o'yinga asoslangan urf-odatlar; aldash yo'li bilan o'ynaladigan o'yinlar, yutuqli o'yinlar, sovrinli o'yinlar; karnavallar, o'yin shaklidagi kimoshdi savdolari va sh.k.

O'yinlar jarayonida o'quvchilar o'zlariga do'stlar, sheriklar, yaqin hamfikrlar tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. O'yinning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati aynan shunda namoyon bo'ladi. O'qituvchi o'z maqsadiga erishish uchun o'quv jarayoni va o'yin faoliyatini orasida qarama-qarshilik bo'lmasligi lozim. O'quv jarayoni o'zining mazmuni va shakllariga ko'ra o'quvchi uchun zerikarli, uni bezdiruvchi hodisa bo'lmasligi kerak. Didaktik jarayon sifatida o'yin tarkibiga quyidagilar kiradi: o'yin ishtirokchilari o'z zimmalariga olgan rollar; mazkur rollarni amalga oshirishga xizmat qiladigan o'yin harakatlari; o'yin jarayonida harakatlarni bajarishga ko'maklashadigan buyumlar; o'yin jarayoni subhektlari orasidagi aniq harakatlari; o'yinning mazmuni, yahni syujeti, unda shartli tarzda ifodalangan haqqoniy, hayotiy vogelik. O'yinlar jarayonida o'quvchilar bosqichma-bosqich axloqiy mehyorlarni o'zlashtiradi, harakatlarni bajarish uchun mashullik ko'nikmalari tarkib topadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -Toshkent.: O'zbekiston. 2018. -B. 40.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son qarori. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda, 37-son, 982-modda.
3. Oxunjonova O. Ta'lim bosqichlarida sinonimlar mavzusini o'qitish metodikasi. , ped. f. n. dissertatsiya, -T.: 2009.
4. Palagina N.N. Voobrajenie u samogo istoka. - Bishkek: «Ilim», 2002.



5. Palagina N.N. Razvitie voobrajeniya u detey vtorogo goda jizni// Doshk. vosp. – 2003. - № 6. - S. 241.
6. Palagina N.N. Diagnostika urovnya voobrajeniya detey rannego vozrasta // Voprosy psixologii. – 1994. - № 5. - S. 12 –20.

РЕЗЮМЕ

Boshlang'ich mактабда о'qishni endi boshlayotgan o'quvchilar bilan ishlash, ularga ta'lif berish va xulq-atvorining rivojlanishiga erishish juda katta mas'uliyat talab etadi. Bunda, pedagogika muhim ahamiyatga ega, chunki u o'qituvchilarga sinfni tashkil qilish uchun eng yaxshi tajribalar haqida tushuncha beradi. Bu ularga turli xil o'quvchilar qanday o'r ganishlarini tushunishga imkon beradi, shuning uchun ular o'z darslarini ushbu ehtiyojlarga moslashtirishlari mumkin. Natijada, bu ularning o'qitish sifatini oshiradi, chunki u talabalar tomonidan yaxshi qabul qilinadi.

РЕЗЮМЕ

Работа с учащимися, которые только начинаютходить в начальную школу, обучение и развитие поведения требует большой ответственности. В то же время педагогика важна, поскольку дает учителям представление о лучших методах организации занятий. Это позволяет им понять, как учатся разные ученики, чтобы они могли адаптировать свои уроки к этим потребностям. В результате повышается качество их преподавания, так как оно хорошо воспринимается учащимися.

SUMMARY

Working with students who are just starting to go to primary school, learning and developing behavior requires a lot of responsibility. At the same time, pedagogy is important because it gives teachers an idea of the best methods for organizing classes. This allows them to understand how different students learn so they can tailor their lessons to those needs. As a result, the quality of their teaching is improved, as it is well received by students.